

**AVTORITAR SIYOSIY TIZIM, MOHIYATI VA ZAMONAVIY  
KO‘RINISHLARI****Jo‘raqo‘ziyev Muhammadyusuf O‘rmonjon o‘g‘li***O‘zbekiston Milliy Universiteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

+998911111940

[joraqozIyev05@gmail.com](mailto:joraqozIyev05@gmail.com)**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada avtoritar siyosiy tizimning mohiyati, asosiy belgilari va zamonaviy siyosiy jarayonlardagi ko‘rinishlari tahlil qilinadi. Avtoritarizmning ustun va zaif tomonlari yoritiladi. Avtoritarizmni demokratiya va totalitarizmdan farqlaydi. Shuningdek, zamonaviy avtoritar tizimlarda manipulyatsiya usullarining, ayniqsa ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazish mexanizmlarining kuchayib borayotgani ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** Avtoritarizm, siyosiy tizim, siyosiy rejim, hokimiyat, manipulyatsiya.

**Аннотация**

*В данной статье анализируются сущность авторитарной политической системы, её основные признаки и проявления в современных политических процессах. Освещаются сильные и слабые стороны авторитаризма. Авторитаризм отличается от демократии и тоталитаризма. Также раскрывается усиление методов манипуляции в современных авторитарных системах, особенно механизмов воздействия на общественное сознание через средства массовой информации и интернет-сети.*

**Ключевые слова:** авторитаризм, политическая система, политический режим, власть, манипуляция.

**Abstract**

*This article analyzes the essence of the authoritarian political system, its main features, and its manifestations in modern political processes. The strengths and weaknesses of authoritarianism are highlighted. Authoritarianism differs from democracy and totalitarianism. It also reveals the growing use of manipulation methods in modern authoritarian systems, especially the strengthening of mechanisms for influencing public consciousness through mass media and internet networks.*

**Keywords:** authoritarianism, political system, political regime, power, manipulation.

## KIRISH

Siyosiy tizim jamiyatdagi hokimiyat munosabatlarini tartibga soluvchi institutlar, me'yorlar va mexanizmlar yig'indisidir. Har bir jamiyatda siyosiy tizimning o'ziga xos shakli mavjud bo'lib, u davlat boshqaruvi, siyosiy institutlar faoliyati hamda fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtiroki darajasini belgilaydi. Siyosiy tizim shakllari orasida avtoritar tizim alohida o'rin tutadi. Chunki bunday tizimda siyosiy hokimiyat keng jamoatchilik qo'lida emas, balki tor siyosiy doira, hukmron elita yoki bitta yetakchi qo'lida jamlanadi. Avtoritar tizimni o'rganish siyosatshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi bunday boshqaruv shakli nafaqat tarixiy davrlarda, balki zamonaviy siyosiy hayotda ham keng uchraydi. Ayrim hollarda avtoritar tizim siyosiy barqarorlik, tartib-intizom va tezkor boshqaruv vositasi sifatida talqin qilinadi. Ammo amalda u ko'pincha siyosiy erkinliklarning cheklanishi, muxolifat faoliyatining susayishi va fuqarolik jamiyati institutlarining zaiflashishi bilan bog'lanadi. Shu sababli avtoritar siyosiy tizimni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda avtoritarizm faqat an'anaviy qo'rqituv vositalari bilan emas, balki axborot ustidan nazorat, propaganda, siyosiy texnologiyalar va manipulyativ mexanizmlar orqali ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois avtoritar tizimni tahlil qilishda nafaqat klassik siyosiy nazariya, balki zamonaviy kommunikatsiya va axborot siyosati omillarini ham hisobga olish lozim.

## ASOSIY QISM

### Avtoritar siyosiy tizim tushunchasi

Avtoritar siyosiy tizim - bu hokimiyatning asosan bir shaxs, bir guruh yoki siyosiy elita qo'lida mujassamlashgan boshqaruv shaklidir. Bunday tizimda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni keng xalq ommasi ishtirokiga emas, yuqoridan boshqaruv tamoyiliga tayanadi. Fuqarolarning siyosiy hayotga real ta'sir ko'rsatish imkoniyati cheklangan bo'ladi, siyosiy institutlar esa aksariyat hollarda hokimiyatni nazorat qilish emas, balki uni mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Siyosatshunos Xuan Lins avtoritar rejimlarni cheklangan siyosiy pluralizmga ega, biroq to'liq shakllangan siyosiy raqobatdan mahrum tizimlar sifatida tavsiflaydi.<sup>22</sup> Uning fikricha, avtoritar rejim demokratik tizimdan fuqarolarning siyosiy ishtiroki va erkinliklari darajasi bilan, totalitar tizimdan esa jamiyatni to'liq mafkuraviy nazorat ostiga olmasligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv avtoritarizmning o'ziga xos jihatini ochib beradi: unda nazorat kuchli bo'ladi, biroq totalitar tuzumdagi kabi jamiyatning barcha sohalarini to'liq egallash maqsadi mavjud bo'lmaydi. Avtoritar tizim odatda markazlashgan siyosiy boshqaruvga tayanadi. Unda siyosiy jarayonlarda fuqarolar emas,

<sup>22</sup> Linz J. J. *Totalitarian and Authoritarian Regimes*. Boulder: Lynne Rienner Publishers 2000. B 162-166.

balki davlat apparati va yuqori hokimiyat doiralari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Natijada hokimiyat institutlari tashqi tomondan rasmiy saqlangan bo‘lsa-da, siyosiy qarorlar yuqoridan pastga qarab shakllanadi. Shu jihatdan avtoritar siyosiy tizimni vertikal boshqaru v modeli sifatida ko‘rsatish mumkin.

### **Avtoritar tizimning asosiy belgilari**

Avtoritar siyosiy tizimning eng muhim belgilaridan biri hokimiyatning markazlashganidir. Davlat boshqaruvidagi asosiy vakolatlar bir siyosiy markazga to‘planadi va muhim qarorlar hukmron guruh tomonidan qabul qilinadi. Parlament, saylov yoki sud tizimi kabi institutlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lishi mumkin, biroq ular amalda mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllanmaydi. Ikkinchi muhim belgi siyosiy raqobatning cheklanganidir. Avtoritar tizimda muxolifat partiyalari, mustaqil siyosiy guruhlar yoki muqobil rahbarlarning faoliyati turli vositalar bilan nazorat qilinadi. Saylovlar o‘tkazilishi mumkin, ammo ular ko‘pincha to‘liq erkin va adolatli siyosiy kurash maydoni bo‘lib xizmat qilmaydi. Natijada hokimiyat almashinuvi demokratik mexanizm orqali emas, mavjud siyosiy tartib doirasida amalga oshadi. Uchinchi belgi fuqarolik erkinliklarining torayishidir. So‘z erkinligi, matbuot erkinligi huquqi turli darajada cheklanadi. Bu esa jamiyatda muqobil fikrlarning erkin shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Siyosiy nazoratning kuchayishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kamaytiradi va siyosiy jarayonlarda passivlikni kuchaytiradi. To‘rtinchi belgi legitimlikning o‘ziga xos shaklidir. Avtoritar tizimlar hokimiyatni faqat saylov yoki ochiq xalq irodasi orqali emas, balki tartib, xavfsizlik, milliy birlik yoki iqtisodiy samaradorlik kabi g‘oyalar orqali oqlashga harakat qiladi.<sup>23</sup> Ya‘ni bunday rejimlar demokratik legitimlikdan ko‘ra boshqaruv samaradorligi va barqarorlikka tayanadi.

### **Avtoritarizmning demokratiya va totalitarizmdan farqi**

Avtoritar tizimni demokratiyadan farqlovchi asosiy jihat erkin siyosiy raqobatning yo‘qligi yoki keskin cheklanganidir. Demokratik tizimda hokimiyat xalq irodasi asosida shakllanadi, muxolifat qonuniy ravishda faoliyat yuritadi, fuqarolar esa hokimiyatni tanqid qilish va muqobil siyosiy kuchlarni qo‘llab-quvvatlash huquqiga ega bo‘ladi. Avtoritar tizimda esa bu imkoniyatlar toraytiriladi. Tizim tashqi tomondan qonuniy ko‘rinishi mumkin, biroq unda real siyosiy muqobillik va ochiq pluralizm sust bo‘ladi. Avtoritar tizim totalitarizmdan ham farqlanadi. Totalitarizm davlat jamiyatning deyarli barcha sohalarini - siyosat, iqtisod, madaniyat, mafkura va hatto shaxsiy hayotni ham to‘liq nazorat ostiga olishga intiladi. Avtoritarizm esa, odatda, jamiyatning barcha qatlamlarini to‘liq mafkuraviy jihatdan qayta shakllantirishga urinmaydi. Uning asosiy maqsadi jamiyatni tubdan o‘zgartirish emas, balki

<sup>23</sup> Heywood A. *Politics*. 5th ed. London: Red Globe Press 2019. B 225-226.

mavjud hokimiyatni saqlab qolish va siyosiy nazoratni davom ettirishdan iborat bo‘ladi.<sup>24</sup> Shu bois avtoritarizmni totalitarizm bilan to‘liq tenglashtirish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ular o‘rtasida ayrim umumiy jihatlar mavjud bo‘lsa-da, totalitar rejim jamiyatni to‘liq mafkuraviy va tashkiliy jihatdan qayta qurishga intiladi, avtoritar rejim esa asosan mavjud siyosiy tartibni saqlab qolishga harakat qiladi.

### **Avtoritar tizimning kuchli va zaif tomonlari**

Ba’zi holatlarda avtoritar tizimning ayrim nisbiy ustun tomonlari tilga olinadi. Masalan, qarorlar tez qabul qilinadi, markazlashgan boshqaruv tufayli siyosiy intizom kuchli bo‘ladi, ichki nizolar qisqa muddatda bostirilishi mumkin. Ayniqsa, beqaror siyosiy sharoitda markazlashgan boshqaruv ayrim siyosiy kuchlar nazarida samarali model sifatida ko‘rinadi. Shu sababli ayrim davlatlarda avtoritar boshqaruv vaqtinchalik “barqarorlashtiruvchi omil” sifatida baholanadi. Biroq avtoritar tizimning salbiy jihatlari ancha chuqurroqdir. Eng katta muammo siyosiy erkinliklarning cheklanishidir. Fuqarolarning siyosiy faolligi pasayadi, jamiyat va davlat o‘rtasida ishonchsizlik kuchayadi, siyosiy qarorlar ustidan jamoatchilik nazorati susayadi. Bundan tashqari, hokimiyatning haddan tashqari markazlashuvi korrupsiya, byurokratiya va siyosiy turg‘unlikni kuchaytirishi mumkin.<sup>25</sup> Yana bir jiddiy kamchilik shundaki, avtoritar tizim uzoq muddatda legitimlik inqiroziga duch kelishi ehtimoli yuqori. Chunki erkin siyosiy ishtirok cheklangan sharoitda hokimiyatning ijtimoiy tayanchi zaiflashadi. Natijada norozilik kayfiyati yashirin shaklda to‘planadi va bu holat keyinchalik siyosiy beqarorlikka sabab bo‘lishi mumkin. Demak, qisqa muddatda samarali ko‘ringan boshqaruv modeli uzoq istiqbolda tizimli muammolar manbaiga aylanishi ehtimoldan xoli emas.

### **Zamonaviy siyosiy jarayonlarda avtoritarizm**

Bugungi kunda avtoritarizm faqat klassik diktatura ko‘rinishida emas, balki turli zamonaviy shakllarda ham namoyon bo‘lmoqda. Ayrim davlatlarda saylovlar, parlament va konstitutsiya rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, real siyosiy raqobat keskin cheklangan bo‘ladi. Bunday holatda tashqi ko‘rinishda demokratik institutlar saqlanadi, ammo amalda hokimiyat tor doira qo‘lida qoladi. Zamonaviy avtoritar tizimlarning muhim xususiyatlaridan biri manipulyatsiya usullaridan keng foydalanilishidir. Bunday tizimlarda hokimiyat faqat ochiq bosim yoki ma’muriy nazorat orqali emas, balki jamoatchilik ongiga yashirin ta’sir ko‘rsatish orqali ham mustahkamlanadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy siyosiy targ‘ibot vositasida axborotni biryoqlama

<sup>24</sup> Friedrich C. J., Brzezinski Z. K. *Totalitarian Dictatorship and Autocracy*. Cambridge: Harvard University Press 1956. B 9-17.

<sup>25</sup> O’Donnell G, Schmitter P. C. *Transitions from Authoritarian Rule: Tentative Conclusions about Uncertain Democracies*. Baltimore: Johns Hopkins University Press 1986. B 15-30.

yetkazish, muqobil fikrlarni cheklash, ayrim voqealarni ataylab bo‘rttirish yoki yashirish orqali fuqarolarning siyosiy qarashlari boshqariladi. Natijada jamiyatda go‘yoki erkin tanlov mavjuddek taassurot paydo bo‘ladi, ammo amalda siyosiy kayfiyat oldindan shakllantirib boriladi.<sup>26</sup> Sergei Guriev va Daniel Treisman zamonaviy avtoritar rahbarlarni “manipulyativ diktatorlar” yoki “informatsion avtokratlar” sifatida tavsiflaydi.<sup>27</sup> Ularning fikricha, bugungi avtoritar liderlar ommaviy repressiya va doimiy zo‘ravonlikka tayangan klassik diktatorlardan farqli ravishda, ko‘proq axborotni boshqarish, o‘z imijini shakllantirish, propaganda, senzura va jamoatchilik fikrini yo‘naltirish vositalaridan foydalanadi. Bunday rahbarlar o‘zlarini xalq manfaatini himoya qiluvchi, samarali boshqaruvni ta‘minlovchi va milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi siyosiy kuch sifatida namoyish etishga intiladi. Bu jarayonda manipulyatsiya nozik, biroq juda ta‘sirchan siyosiy vositaga aylanadi. Masalan, axborot oqimini tanlab berish, jamiyat diqqatini ikkinchi darajali masalalarga burish, hokimiyat foydasiga zarur obrazlar yaratish yoki tanqidiy fikrlarni chetga surish orqali siyosiy ong shakllantiriladi. Fuqarolar ko‘pincha siyosiy bosimni ochiq sezmasligi ham mumkin, ammo ularning qarashlari va siyosiy xatti-harakati sekin-asta ma‘lum yo‘nalishga moslashtiriladi. Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda manipulyatsiya yanada murakkab tus olmoqda. Axborot oqimlarini boshqarish, siyosiy kun tartibini belgilash, jamoatchilik e‘tiborini kerakli masalalarga qaratish yoki aksincha, muhim muammolardan chalg‘itish orqali avtoritar tendensiyalar mustahkamlanadi. Shu sababli zamonaviy siyosiy tizimlarni baholashda nafaqat rasmiy institutlarga, balki axborot erkinligi, media mustaqilligi va jamoatchilik fikrining qanday shakllanishiga ham jiddiy e‘tibor qaratish zarur.<sup>28</sup>

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, avtoritar siyosiy tizim hokimiyatning markazlashuvi, siyosiy raqobatning cheklanishi va fuqarolik erkinliklarining torayishi bilan tavsiflanadigan siyosiy boshqaruv shaklidir. U demokratik tizimdan erkin saylovlar va pluralizmning sustligi bilan, totalitar tizimdan esa jamiyatni to‘liq mafkuraviy nazorat qilmasligi bilan farq qiladi. Hozirgi davrda avtoritarizm faqat ochiq zo‘ravonlik yoki ma‘muriy bosim orqali emas, balki manipulyatsiya, axborotni nazorat qilish va jamoatchilik ongiga yashirin ta‘sir o‘tkazish orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Bu esa zamonaviy avtoritar tizimlarni tahlil qilishda siyosiy institutlar bilan bir qatorda media maydoni, propaganda va axborot siyosatini ham chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, avtoritar tizim qisqa muddatda tartib va boshqaruv samaradorligini ta‘minlagandek ko‘rinsa-da, uzoq muddatda legitimlik, fuqarolar

<sup>26</sup> Castells M. *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell 1996. B 328-336.

<sup>27</sup> Guriev S, Treisman D. *Spin Dictators: The Changing Face of Tyranny in the 21st Century*. Princeton: Princeton University Press 2022. B 1-18.

<sup>28</sup> Morozov E. *The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom*. New York: PublicAffairs 2011. B. 87-105.

ishtiroki va siyosiy barqarorlik bilan bog‘liq jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois avtoritar siyosiy tizimni o‘rganish siyosatshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Juan Linz. Totalitarian and Authoritarian Regimes. Boulder: Lynne Rienner Publishers 2000. B 162-166
2. Andrew Heywood. Politics. London: Palgrave Macmillan 2013. B 225-226
3. Friedrich Carl J, Zbigniew Brzezinski Zbigniew. Totalitarian Dictatorship and Autocracy. Cambridge: Harvard University Press 1956. B 9-17
4. Guillermo O‘Donnell, Philippe C. Schmitter. Transitions from Authoritarian Rule: Tentative Conclusions about Uncertain Democracies. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1986 B 15-30
5. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996. B 328-336
6. Sergei Guriev, Daniel Treisman. Spin Dictators: The Changing Face of Tyranny in the 21st Century. Princeton: Princeton University Press, 2022. B 1-18
7. Sergei Guriev, Daniel Treisman. “Informational Autocrats.” Journal of Economic Perspectives. 2019. Vol. 33, No. 4. B 100-127
8. Evgeny Morozov. The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom. New York: PublicAffairs, 2011. B 85-102
9. Odilqoriyev X, Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Toshkent 2012. B 123-126
10. Ergashev I, Abdullayev B, Xudaynazarov A. Siyosatshunoslikka kirish: O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2025. B 165-172